

**Alfred de Myusse poetikasida « mal du siècle»ning paydo bo‘lish
xususiyatlari**

Ziyadullayev Abubakir

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alfred de Myussening badiiy ijodida katta rol o‘ynagan “mal du siècle » tushunchasining namoyon bo‘lish holatlari uning “Asr farzandining dil izhori” asarini tahlil qilish orqali o’rganilgan. Bunda asosan yozuvchining nazarda tutgan xayoliy olamida tasvir etilgan va asarda o‘z ifodasini topgan poetik holatlarni germeniftik tahlil qilish orqali ayrim xulosalarga erishilgan.

Kalit so’zlar. *mal du siècle, ma’rifatparvarlik, yangi tuzum, kichik romantik, insoniy buzuqlik, hayvoniy harakatlar.*

XIX asr fransuz adabiyoti namoyondalaridan biri bo’lgan Alfred de Myusse nafaqat adabiyotda balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida ham muhim o’rin tutgan shaxs sifatida Fransiya tarixida o’chmas iz qoldirgan. U o’z asarlarida jamiyatning inqirozi yoki rivojiga o’sha jamiyatda mavjud muhitning qay yo’sinda shakllanganligini asosiy sabablardan qilib ko’rsatadi va o’z asarlarida buni bayon qilishga harakat qiladi. « Asr farzandining dil izhori » asari yuqorida aytilgan fikrni isboti o’laroq obraz va sujet munosabatlari negizida jamiyatni inqirozga olib boruvchi unsurlarni tilga olgan va uning ayrim yechimlari bilan asar so’ngida o’z mulohazalari bilan o’rtoqlashgan. Bu asar qahramonining azoblarini Napoleonning muvaffaqiyatsizliklari nuqtayi nazariga qaratishni tanlasa, bu tasodifning ta’siri emas. U "Asr farzandining dil izhori" ning birinchi bobida muhokama qilinadigan olovli yosh imperator janglari va shon-shuhrat muhitida o’sgan:

«Conçus entre deux batailles, élevés dans les collèges aux roulements de tambour, des milliers d’enfants se regardaient entre eux d’un œil sombre, en essayant leurs muscles chétifs. De temps en temps leurs pères ensanglantés apparaissaient, les soulevaient sur leur poitrine chamarrée d’or, puis les posaient à terre et remontaient à cheval. Un seul homme était en vie alors en Europe ; le reste des êtres tâchait de se remplir les poumons de l’air qu’il avait respiré. [...]

Jamais il n'y eu autant de nuits sans sommeil que du temps de cet homme ; jamais on ne vit se pencher sur les remparts des villes un tel peuple de mères désolées ; jamais il n'y eut un tel silence autour de ceux qui parlaient de mort. Et pourtant jamais il n'y eu autant de joie, tant de vie, tant de fanfares guerrières dans tous les coeurs ; jamais il n'y eut de soleil si pur que ceux qui séchèrent tout ce sang. [...] Alors il s'assit sur un monde en ruines une jeunesse soucieuse. Tous ces enfants étaient des gouttes du sang brûlant qui avait inondé la terre ; ils étaient nés au sein de la guerre, pour la guerre. Ils avaient rêvé pendant quinze ans des neiges de Moscou et du soleil des pyramides. [...] Ils avaient dans la tête tout un monde ; ils regardaient la terre, le ciel, les rues et les chemins ; tout cela était vide, et les cloches de leurs paroisses résonnaient seules dans le lointain. [...] Les enfants regardaient tout cela, pensant toujours que l'ombre de César allait débarquer à Cannes et souffler sur ces larves ; mais le silence continuait toujours, et l'on ne voyait flotter dans le ciel que la pâleur des lis. »¹ Ma'nosi: Ikki jang o'rtasida tug'ilgan, kollejlarda tarbiyalangan minglab bolalar bir-biriga qonli tikilib, o'zlarining nozik mushaklarini sinab ko'rishadi. Vaqtı-vaqtı bilan ularning qonga belangan otalari paydo bo'lib, ularni oltin bilan burkangan ko'kragiga ko'tarib, keyin ularni qo'yib, yana otlariga minib g'oyib bo'lishar edi. O'sha paytda Evropada faqat bir kishi yashar edi; qolgan jonzotlar u nafas olayotgan havo bilan o'pkalarini to'ldirishga majbur edilar. [...] Bu odamning davridagidek uyqusiz tunlar hech qachon bo'lмаган; Hech qachon shaharlar qo'rg'onlari ustiga suyanib, kimsasiz onalarning olomonini ko'rmagan edi; o'lim haqida gapirganlar atrofida hech qachon bunday sukunat bo'lмаган. Va shunga qaramay, hech qachon barcha qalblarda bunchalik quvonch, bunchalik hayot, bu qadar ko'p urush shov-shuvlari bo'lмаган; qonni quritadigan toza quyosh hech qachon bo'lмаган. [...] Keyin vayronaga aylangan davlatga bir xalqchli yosh o'tirdi. Bu bolalarning barchasi urushda, urush uchun tug'ilgan edilar. O'n besh yil davomida ular Moskva qorlarini va piramidalar quyoshini orzu qilishdi. [...] Ularning xayolida butun dunyo kezish bor edi; ular yerga, osmonga, ko'cha va

¹ Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle. – Paris : F. Bonnaire, 1836. – P. 7-14.

yo'llarga qarashardi; hamma narsa bo'm-bo'sh edi va ularning cherkovlarining qo'ng'iroqlari uzoqdan yolg'iz jiringlardi. [...] Bolalar bularning barchasiga qarab, doimo Sezarning soyasi Kannga mavjud, va bu o'ljalarga zarba beradi, deb o'ylashdi; lekin sukunat hamon davom etar, osmonda zambaklar rangparligidan boshqa hech narsa suzib yurganini ko'rmasdi.

Myusse yuqorida taqdim qilgan qayta qurish jarayonidan olingen chizgilar juda jozibali emas. Yoshlar nomutanosib burjuaziya hamda oddiy xalq sud qiladigan aristokratiyaning soyasida vujudga kelgan muhitning fitnachilari bilan, Monarxiyani qayta tiklashga harakat qilayotganlarning manfaat ko'rishi bilan, o'zlarining taqdiri, kelajagi ortilgan kemani o'z manfaati yo'lida foydalanishga kelgan qadimiy kelgindilar muhiti yo'qolayotgan jamiyatda kurashishlari kerak. Faqatgina Avliyo Yelena qarorgohining xotirasi qoldi, unda yoshlik cho'qqilarining diqqatga sazovor joylarni izlab, undan ajralib chiqishga qiynalishadi:

*"Napoléon mort, les puissances divines et humaines étaient bien rétablies de fait ; mais la croyance en elles n'existe plus. [...] Napoléon despote fut la dernière lueur de la lampe du despotisme ; il détruisit et parodia les rois, comme Voltaire les livres saints. Et après lui on entendit un grand bruit ; c'était la pierre de Sainte-Hélène qui venait de tomber sur l'ancien monde."*² Ma'nosi: Napoleon o'ljan, ilohiy va insoniy kuchlar haqiqatan ham qayta tiklandi; lekin ularga bo'ljan ishonch endi yo'q edi. [...] Napoleon istibdodi zolimlikning so'nggi chirog'i edi; u Volterning muqaddas kitoblari kabi shohlarni yo'q qildi. Uning ortidan katta shovqin eshitildi; Bu qadimgi dunyoga endigina tushgan Avliyo Yelena xarsangi edi.

Ishonchi so'nganidan so'ng, yo'ldan adashgan odamlar ma'yus va qayg'uli kayfiyatda umidsizlik bilan, turli ehtiroslarga g'azablangan va parishon holda murojaat qiladi, ma'rifatparvarlik, sovuqqonlik va o'zini unutish o'rtasida tinimsiz nomuvofiqliklar kuzatiladi. Boshlangan yangi tuzum esa azoblanayotgan yuraklarga yangi yechim taqdim etdi: « Faites-vous prêtres! » [Sizlar ruhoniyl

² Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle. – Paris : F. Bonnaire, 1836. – P. 21.

bo'lasizlar]. Armiya safiga qo'shilishdan ko'ra ruhoniylikni tanlash ancha foydali, imperatorlik davri esa tugallanayotgan edi.

"mal du siècle" atamasining etimologik ma'nosida o'z yo'lini yo'qotgan fransuz yoshlarining holati, ma'rifatparvar faylasuflarining ishdan bo'shatilganligi, Xudoning yerdagi uyida ham, ko'pincha shaxsiy manfaatlarga bog'langan monarxning otalik qiyofasi aks etgan. Buni Paul Bénichou *L'Ecole du désenchantement* asarida quyidagicha tasdiqlaydi: "*Dans la multitude des opinions, entre un passé condamné et un avenir inconnu, ils perdent toute illusion et toute foi. Des années de tempête a surgi un monde désenchanté, c'est-à-dire funèbre, selon l'obsession de Musset. [...] Le peuple, qui ne croit plus à rien après avoir tout vu, est sourdement rebelle dans son apathie.*"³ Ma'nosi: *Ko'pchilik fikrlarga qaralsa, halokatli o'tmish va noma'lum kelajak o'rtasida ular barcha illyuziya va barcha ishonchni yo'qotidilar. To'zonli yillar, umidsizlikka uchragan dunyoni, ya'ni Myussening xavotirli taxmini bo'yicha dafn dunyosini keltirib chiqardi. [...] Endi hech narsaga ishonmaydigan, hamma narsani ko'rghan odamlar befarqliklarcha isyon ko'tarishdilar.* Bunda Fransiya tarixidagi bu burilish nuqtasi ham muhim, ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yosh romantiklar guruhiga a'zo sifatida "kichik romantik" laqabini olgan Charlse Lassailly o'zining *Les Roueries de Trealph, notre contemporain avant son suicide* nomli asarida qahramonning suisidga moilligini aks ettirish orqali asr fojiyasining sabablarini ko'rsatishga harakat qilgan.

Alfred de Myusse o'zining dunyoga bo'lgan qarashlari va hayotining alamli holatlaridan kelgan fikrlari asosida yozgan asarlarida ifodalangan badiiy g'oya o'quvchini insonning jirkanch tomonlarini ko'proq o'ylashga majbur etadi. Asarlardagi insoniy buzuqlik va hayvoniy harakatlar inson ongida Alfred de Myusse haqida salbiy fikrlar tug'ilishiga olib keladi. Ammo bu asarlardagi ifodalangan va gavdalantirilgan barcha obrazlar va syujetlar so'ngida yozuvchining holatga bo'lgan munosabati ifodalangan va bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, Alfred de Myusse hayotning jirkanch tomonlarining oqibat va

³ P. Bénichou. *L'Ecole du Désenchantement*. – Paris : Gallimard, 1992. – P. 176-177.

natijalarini ko'rsatish orqali kelajak avlodga o'zining hayotiy-falsafiy qarashlarini ibrat sifatida ko'rsatgan. Muallif yosh avlodni ular duch kelishi mumkin bo'lgan baland va past to'siqlar bilan tanishtirish va ularning ma'lum oqibatlari haqida bolalarga bilim va ko'nikma berish hech qanday xabarsiz, ichi bo'sh yosh avlodni voyaga yetkazishdan ko'ra avzalroq ekanligini ifodalagan. Shu boisdan o'z asarlarida jamiyatda paydo bo'lgan va keng yoyilib borayotgan bu noinsoniy harakatlarni to'xtatishning yo'li sifatida o'zining asarlarini shunday xatti-harakatlarning oqibatlarini ko'rsatish orqali kelajak avlodga meros qilib qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle. – Paris : F. Bonnaire, 1836. – 343 p.
2. P. Bénichou. L'Ecole du Désenchantement. – Paris : Gallimard, 1992. – 615 p.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
4. Yo'ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. – 134 b.
5. Белинский В.Г. Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши. М.Ойбек таржимаси // Муқаммал асарлар тўплами. 17-том. – Тошкент: Фан, 1981. – 308 б.